

**QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI
KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH
VA BANDLIK VAZIRLIGI
BUYRUG‘I**



**QARAQALPAQSTAN RESPUBLIKASI
KÁMBAĞALLÍQTÍ QÍSQARTÍW
HÁM BÁNTLIK MINISTRIGI
BUYRÍGÍ**

2026-yil 9-aprel

№ 40-ICH

Nukus shahri

**Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini
takomillashtirish va ichki tartib-taomillarni
tasdiqlash to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni ijrosini ta‘minlash, O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida yagona siyosatni amalga oshirish, xodimlarda korrupsiyaga nisbatan murossasiz munosabatni shakllantirish, korrupsiyaviy xavf-xatarlarning oldini olish hamda aniqlash tizimini yanada takomillashtirish maqsadida,

BUYURAMAN :

1. Quyidagilar :

- korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati 1-ilovaga muvofiq;
- manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish to‘g‘risidagi nizom 2-ilovaga muvofiq;
- korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida xabar berish, ularni ro‘yxatga olish va ko‘rib chiqish hamda xodimlarni rag‘batlantirish tartibi 3-ilovaga muvofiq;
- korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi holati to‘g‘risidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish tartibi 4-ilovaga muvofiq;
- ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo‘yicha yo‘riqnoma 5-ilovaga muvofiq;
- korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha o‘qitishni tashkil etish uslubiyati 6-ilovaga muvofiq;
- korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash uslubiyati 7-ilovaga muvofiq;
- davlat xaridlarini amalga oshirish bo‘yicha xarid komissiyasi to‘g‘risidagi nizom 8-ilovaga muvofiq;
- davlat xaridlari jarayonida ishtirokchilarni tekshirish tartibi 9-ilovaga muvofiq;
- korrupsiyaga qarshi kurashish dasturi 10-ilovaga muvofiq;
- korrupsiyaga qarshi talablarga rioya etilishini monitoring va nazorat qilish qoidalari 11-ilovaga muvofiq;
- huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlik qilish tartibi 12-ilovaga muvofiq;
- korrupsiyaviy xatti-harakatlar to‘g‘risidagi xabarlarini qabul qilish va ko‘rib chiqish reglamenti 13-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Vazirlikning tarkibiy bo‘linmalari rahbarlari hamda va tuman (shahar) Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi boshliqlari:

mazkur buyruq bilan tasdiqlangan hujjatlar asosida ishlarni tashkil etsin;
korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimining samarali faoliyat yuritishini ta‘minlasin.

3. Tashkiliy-nazorat shu‘basi mudiri M.Ametov mazkur buyruq bilan tasdiqlangan hujjatlarning hududiy bo‘linmalarga o‘z vaqtida yetkazilishini ta‘minlasin.

4. Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilishni o‘z zimnamda qoldiraman.

Vazir



O. Kazakbaev